# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№4

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026
APREL



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, aprel.*

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES........11
**Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.**

ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ........21
**Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна**

BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH........27
**Karayev Payzillaxon Yusufxonovich**

FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH........32
**Xakimov Zafar Ibragimovich**

IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI........38
**Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi**

QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI........44
**Igitov Jurabek Kuzibekovich**

ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА........50
**Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ........56
**Халтурдиев Айтмурат Маратович**

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI........64
**Saatova Lolaxon Ergashevna**

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI........71
**Pulatov Abdullo**

MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA........76
**Axmedov Zafarjon Zokirjon**

МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ........80
**Ташпулатов Дильмурад Рустамович**

KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI........85
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**

INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILIY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA........92
**Atamatov Abduxalil Salomovich**

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR........97
**Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich**

NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH ....103
**Raximova Moxigul Isroiljonovna**

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI ....107
**Davitova Shaxzoda Doniyor qizi**

ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY ....112
**Kamilova Nargiza**

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI ....115
**Sottarov Abduvali Umirqulovich**

INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ....120
**Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov**

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI ....130
**Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich**

SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI ....135
**Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI ....140
**Yangiboev Rustam Berdiyarovich**

MINTAQA IQTISODIY O‘SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI ....145
**Turopova Nigora Xolmurod qizi**

ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ ....149
**Наурызбаев Алиакбар Рустамович**

BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....152
**Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o‘g‘li**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....163
**Saidaxmedova Aida Mirzayevna**

O‘ZBEKISTONDA KO‘CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ....169
**Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich**

O‘ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI ....174
**Safarova Muxabbat Radjabovna**

TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA’SIRI ....178
**Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO‘NALISHLARI ....186
**Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li**

SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI ....190
**Uralov Eliboy Omonovich**

DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG‘I RIVOJLANISHINI KO‘P OMILLI BOG‘LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH ....194
Yembergenova Aynur Aydosbaevna

ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ....201
Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI ....205
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov

HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE’MOLCHILAR TALABLARINI O‘RGANISH ....211
D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILIY IMKONIYATLARI ....217
Atayev Jaxongir Erkinovich

KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH ....221
M.O.Yuldoshova

HUDUDNING “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO‘RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI ....226
Shomirzayev Abdug‘affor Abdujabbor o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA SUV XO‘JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR ....231
To‘rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich,
Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna

KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMLARI ....236
Iminova Nargizaxon Akramovna

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG‘OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI ....241
Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich

PAXTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA ....249
Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich

ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ....253
Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи

QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH ....259
Eshkarayev Bobir Chariyevich

QISHLOQ XO‘JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING INNOVATSION USULLARI ....265
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMINING AMALIY TAHLILLARI ....273
Hamroyev Sherzod Axtamovich

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА ....280
Тен Марина Владимировна

O‘ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O‘RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI ....287
Sobitova Ra’no Solidjonovna

NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI........290
Mansurov Obid Zaynidinovich

QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI..........296
Yahyoyev To'lqin Ismatulla o'g'li

QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI........300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI........306
Norova Nozima Nabiyevna

AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI........312
Boboyev L Kadrxuja Djuraxodjayevich

HUDUD EKSPORT SALOHIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH........318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ........325
Бобоев Л Кадрхужа Джураходжаевич

HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI........331
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li

OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI........339
Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li

KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH........344
Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli

АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ........350
Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич

ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI........355
Umarova Durdona Abdumannabovna

UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH........360
Aminova Naima Umar qizi

# UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Aminova Naima Umar qizi**
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email:naimaaminova3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Xususan, uy-joy fondidan samarali foydalanish, boshqaruv mexanizmlarini raqamlashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida uy-joy boshqaruvini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy uy-joy fondi, uy-joy boshqaruvi, boshqaruv tizimi, takomillashtirish, raqamlashtirish, kommunal xizmatlar, samaradorlik, xususiy sektor, boshqaruv mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar, uy-joy siyosati, infratuzilma, xizmatlar sifati, modernizatsiya, xorijiy tajriba.

Abstract. This article analyzes the pressing issues in improving the management system of the modern housing stock. In particular, it examines ways to use the housing stock efficiently, digitalize management mechanisms, expand private sector participation, and enhance the quality of services provided. Furthermore, based on international experience, proposals have been developed for modernizing housing management and implementing innovative approaches. The results of the article contribute to the further development of the housing and communal services sector.

Keywords: modern housing stock, housing management, management system, improvement, digitalization, communal services, efficiency, private sector, management mechanisms, innovative approaches, housing policy, infrastructure, quality of services, modernization, international experience.

Аннотация. В данной статье проанализированы актуальные вопросы совершенствования системы управления современным жилищным фондом. В частности, рассмотрены пути эффективного использования жилищного фонда, цифровизации механизмов управления, расширения участия частного сектора, а также повышения качества предоставляемых услуг. Кроме того, на основе зарубежного опыта разработаны предложения по модернизации управления жилищным фондом и внедрению инновационных подходов. Результаты статьи способствуют дальнейшему развитию сферы жилищно-коммунального хозяйства.

Ключевые слова: современный жилищный фонд, управление жилищным фондом, система управления, совершенствование, цифровизация, коммунальные услуги, эффективность, частный сектор, механизмы управления, инновационные подходы, жилищная политика, инфраструктура, качество услуг, модернизация, зарубежный опыт.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, uy-joy fondini samarali boshqarish va kommunal xizmatlar tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda kechayotgan jadal urbanizatsiya jarayonlari, ko'p kvartirali uy-joylar soninig ortishi hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga bo'lgan talabning o'sishi uy-joy fondini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017 yildagi "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017-son[1] Farmoni sohada institutsional

1 https://lex.uz/ru/docs/-3170224

islohotlarni amalga oshirishda muhim qadam boʻldi. Ushbu qarorga muvofiq, uy-joy kommunal xoʻjaligi tizimi qayta tashkil etildi va boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga asos solindi.[3]

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2021 yildagi “Koʻp kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-5152-son[2] qarori asosida koʻp kvartirali uylarni boshqarishning yangi modeli joriy etildi. Unda boshqaruv kompaniyalari institutini rivojlantirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda uy-joylarni saqlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari belgilandi.[4] Shuningdek, “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da taʼkidlangan. Xususan:

Zamonaviy uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etishda sohani zamonaviy boshqaruviga bosqichma-bosqich oʻtish lozim hisoblanadi. Buning uchun uy-joy fondi boshqaruvi xodimlari faoliyati samaradorligini baholashning mezonlari va uslublari hamda samaradorlikning muhim koʻrsatkichlarini (KPI) joriy qilish; mehnatga haq toʻlashning zamonaviy tizimini yaratish lozim. Bunda oylik ish haqini davlat xizmatchisi tomonidan qilinayotgan ishlar, ularning natijadorligi, sifati, murakkabligi, amaliyotda toʻgʻri ishlayotganligi va boshqa mezonlardan kelib chiqib belgilash; mehnatga haq toʻlashning zamonaviy tizimini yaratish evaziga ijtimoiy himoya va qayta tayyorlash choralarini koʻrgan holda davlat xizmatchilarining sonini qisqartirish kerak.[1]

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-PQ-4699-son[3] qarori doirasida uy-joy kommunal xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, jumladan, elektron hisob-kitob tizimlari va onlayn toʻlov platformalarini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratildi. Bu esa boshqaruv jarayonlarida shaffoflik va samaradorlikni taʼminlashga xizmat qilmoqda.[2]

Shu bilan birga, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari doirasida aholi yashash punktlarini kompleks rivojlantirish, eskirgan uy-joy fondlarini rekonstruksiya qilish, muhandislik infratuzilmasini yangilash va kommunal xizmatlar sifatini oshirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bois, zamonaviy uy-joy fondi boshqaruvini takomillashtirish, innovatsion va raqamli yondashuvlarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda samarali boshqaruv modellarini shakllantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy uy-joy fondi boshqaruvini takomillashtirish masalasi iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv nuqtayi nazaridan koʻplab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan oʻrganilgan. Ushbu yoʻnalishdagi ilmiy tadqiqotlar uy-joy fondini boshqarishning nazariy asoslari, amaliy muammolari va innovatsion yechimlarini qamrab oladi.

Jumladan, D. Berdieva va Z. Akbarxodjaeva uy-joy sektorini isloh qilishning eng muhim muammolaridan biri bu xalq xoʻjaligining ushbu sohasini boshqarishni takomillashtirish ekanligini taʼkidlaydi. Biroq, xoʻjalik yuritishning yangi shakl va usullarini joriy etish iqtisodiy munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlari va uy-joy kommunal xoʻjaligi korxonalari faoliyatining iqtisodiy mexanizmi, shuningdek, iqtisodiyotning ushbu tarmogʻining ijtimoiy yoʻnalishi bilan murakkablashadi. Uy-joy-kommunal xizmat koʻrsatish sohasidagi islohotlarning yutuqlaridan biri aholi tomonidan kommunal xizmatlar uchun toʻlovlarni 100 foizga toʻlashga oʻtish boʻldi.[5]

“Zamonaviy uy-joy fondini takror ishlab chiqarish va boshqaruvning samarali rivojlanishi uy-joy bozorida talab va taklifning barqarorligini taʼminlovchi omillarni hisobga olgan holda risklarni aniqlash, baholash va tartibga solish vositalarini ishlab chiqish, investitsion loyihalar sifatini oshirish hamda oʻzaro samarali hamkorlikni taʼminlash bilan belgilanadi.”[6]

D. Inoyatova oʻz tadqiqotida uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati, uning asosiy funksiyalari va ishtirokchilari faoliyatini tahlil qilib, sohada zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurligini asoslab bergan.[7] Muallifning taʼkidlashicha, uy-joy fondini boshqarishda mulkchilik shakllari va boshqaruv subyektlari oʻrtasidagi munosabatlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Y. Adilova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa uy-joy kommunal xoʻjaligini innovatsion rivojlantirish mexanizmlari oʻrganilgan boʻlib, unda davlat-xususiy sheriklik, kraudfanding va zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish orqali sohada samaradorlikni oshirish mumkinligi koʻrsatib oʻtilgan. Bu esa uy-joy fondini boshqarishda bozor mexanizmlarini keng qoʻllash muhimligini koʻrsatadi.[8]

F. Achilova tadqiqotlarida uy-joy kommunal xizmatlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari yoritilgan. Unda “Digital communal” platformasi misolida aholi bilan interaktiv muloqotni yoʻlga qoʻyish, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va xizmatlar shaffofligini taʼminlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Bu esa raqamlashtirish uy-joy boshqaruvining asosiy yoʻnalishlaridan biri ekanligini koʻrsatadi.[9]

2 https://lex.uz/docs/-5464157
3 https://lex.uz/docs/-4800657

Shu bilan birga, uy-joy siyosati va uning huquqiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar ham alohida ahamiyatga ega. U. Qurbonov o‘z ishida O‘zbekistonda uy-joy siyosatining shakllanishi, uning huquqiy tamoyillari va davlat dasturlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlash masalalarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlar uy-joy fondini boshqarishda normativ-huquqiy bazaning ahamiyatini ko‘rsatadi.[10] Bundan tashqari, B. Odinaev tadqiqotlarida uy-joy qurilish bozori va unga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar o‘rganilgan bo‘lib, bu omillar uy-joy fondini boshqarish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.[11]

Xorijiy tadqiqotlarda esa “aqlli uylar” (smart home) va intellektual boshqaruv tizimlari keng o‘rganilgan bo‘lib, ular energiya tejamkorlik, avtomatlashtirish va aholiga qulaylik yaratishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali binolar samaradorligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy uy-joy fondi boshqaruvini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- innovatsion va “yashil” texnologiyalarni joriy etish;
- huquqiy va institutsional bazani mustahkamlash;
- xizmatlar sifatini oshirish.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayrim masalalar, jumladan, aholi ishtirokini oshirish, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan boshqaruv modellarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlar yetarlicha yoritilmaganligi kuzatiladi. Bu esa mazkur sohada qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil hamda boshqa usullar qo‘llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy uy-joy fondini boshqarish tizimi tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mazkur sohada qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Xususan, ko‘p kvartirali uylarni boshqarishda yangi institutsional yondashuvlar joriy etildi, boshqaruv kompaniyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi va kommunal xizmatlar ko‘rsatish tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. Tahlillar natijasiga ko‘ra, uy-joy fondini boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar aniqlandi: boshqaruv tizimining tashkil etilganlik darajasi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifatining barqarorligi va aholi ishtirokining faolligi. Ayniqsa, boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xizmatlar shaffofligini ta’minlash va to‘lov intizomini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- uy-joy fondini boshqarishda raqamlashtirish darajasini oshirish xizmatlar
- samaradorligini sezilarli ravishda yaxshilaydi;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali raqobat muhitini kuchaytirish mumkin;
- aholi ishtirokini oshirish boshqaruv sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi;
- profilaktika va rejali ta’mirlash ishlarini tizimli tashkil etish uy-joy fondining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi;
- energiya tejamkor va innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi (1-jadval).

1-jadval. Uy-joy fondi boshqaruvi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

| № | Omillar | Mazmuni | Ta’sir darajasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Boshqaruv tizimi | Boshqaruv kompaniyalari faoliyati, tashkiliy struktura | Yuqori |
| 2 | Raqamlashtirish darajasi | Elektron to‘lovlar, onlayn platformalar | Yuqori |
| 3 | Moliyaviy ta’minot | Ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish uchun mablag’lar | O‘rta |
| 4 | Kadrlar salohiyati | Malakali mutaxassislar mavjudligi | Yuqori |
| 5 | Aholi ishtiroki | Uy egalari faolligi va nazorati | O‘rta |
| 6 | Infratuzilma holati | Muhandislik tarmoqlarining eskirishi | Yuqori |

Uy-joy fondi boshqaruvi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilganda, birinchi navbatda boshqaruv tizimi ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshqaruv kompaniyalari faoliyati va tashkiliy struktura uy-joy fondining samaradorligini yuqori darajada belgilaydi. Samarali boshqaruv tizimi fond resurslaridan optimal foydalanish, qarorlarni tez va samarali qabul qilish hamda muammolarni minimal vaqtda hal qilish imkonini beradi. Shuningdek, uy-joy fondi samaradorligini oshirishda raqamlashtirish darajasi ham muhim rol o‘ynaydi. Elektron to‘lovlar, onlayn platformalar va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari faoliyatni soddalashtiradi, foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi va nazoratni samarali qiladi, shu bois bu omil ham yuqori ta’sir darajasiga ega.

Moliyaviy ta’minot uy-joy fondining samaradorligiga o‘rta darajada ta’sir qiladi. Ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish uchun zarur mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, xizmat sifati pasayishi mumkin, ammo boshqa omillar bilan birga samaradorlikni to‘liq yoki qisman saqlab qolish imkoni mavjud. Kadrlar salohiyati ham yuqori ahamiyatga ega bo‘lib, malakali mutaxassislar mavjudligi uy-joy fondini samarali boshqarish va muammolarni tez hal qilishda asosiy omillardan biridir.

Aholi ishtiroki – uy egalari faolligi va nazorati ham fond samaradorligiga ta’sir qiladi, ammo bu ta’sir o‘rta darajada hisoblanadi. Faol aholi fondning ishini nazorat qilib, mas’uliyatni oshiradi, ammo samarali natija olish uchun boshqa asosiy omillar bilan birga ishlashi kerak. Shu bilan birga, infratuzilma holati uy-joy fondi samaradorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Muhandislik tarmoqlarining eskirishi xizmat ko‘rsatish sifatini pasaytiradi va boshqaruv tizimining samaradorligini kamaytiradi, shuningdek, aholi qoniqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, uy-joy fondi samaradorligi asosan boshqaruv tizimi, raqamlashtirish darajasi, kadrlar salohiyati va infratuzilma holatiga bog‘liq. Moliyaviy ta’minot va aholi ishtiroki esa o‘rta darajada ta’sir ko‘rsatadi, lekin ular boshqa omillar bilan birlashganda umumiy samaradorlikka salmoqli hissa qo‘shadi. Shu jihatdan, uy-joy fondi boshqaruvi va xizmat sifati sohasidagi strategik rejalarni ishlab chiqishda ushbu omillar asosiy yo‘nalish sifatida e’tiborga olinishi zarur (2-jadval).

2-jadval. Uy-joy fondi boshqaruvida mavjud muammolar va ularning sabablari

| № | Muammolar | Asosiy sabablar |
|---|---|---|
| 1 | Xizmatlar sifati pastligi | Nazorat tizimi zaifligi |
| 2 | Boshqaruv samaradorligi pastligi | Tajribasiz boshqaruv kompaniyalari |
| 3 | To‘lov intizomining pastligi | Aholida moliyaviy madaniyat etarli emas |
| 4 | Kadrlar etishmasligi | Malaka oshirish tizimi zaif |
| 5 | Infratuzilmaning eskirishi | Etarli investisiya kiritilmagan |

Uy-joy fondi boshqaruvida bir qator muhim yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularning rivojlanishi nazorat tizimi, boshqaruv kompaniyalari tajribasi, aholi moliyaviy madaniyati, kadrlar salohiyati va infratuzilma holati bilan uzviy bog‘liq. Birinchi navbatda, xizmatlar sifatini yanada oshirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada nazorat tizimini kuchaytirish va boshqaruvning samarali mexanizmlarini keng joriy etish, xizmat ko‘rsatish standartlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jihat – boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlaridir. Bu yo‘nalishda boshqaruv kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish, xodimlarning bilim va malakasini oshirish orqali boshqaruv jarayonlarini yanada mukammallashtirish mumkin. Natijada qaror qabul qilish sifati yaxshilanadi va fondning umumiy samaradorligi ortadi.

To‘lov intizomini mustahkamlash ham uy-joy fondi samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir. Bu borada aholining moliyaviy madaniyatini rivojlantirish, to‘lov tizimlarini qulaylashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkoniyati mavjud. Aholining o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirishi kompaniyalar faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydi.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Malaka oshirish tizimini takomillashtirish orqali xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirish mumkin. Bu esa xizmat sifati va boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

So‘nggi jihat – infratuzilmani modernizatsiya qilish imkoniyatlaridir. Bu borada investitsiyalarni keng jalb etish orqali muhandislik tarmoqlarini yangilash va uy-joy fondi obyektlarini zamonaviy holatga keltirish mumkin. Natijada xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi va aholi qoniqish darajasi ortadi.

Umuman olganda, uy-joy fondi boshqaruvidagi ushbu yo‘nalishlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni izchil rivojlantirish orqali nazorat tizimini kuchaytirish, boshqaruv kadrlarini takomillashtirish, aholi moliyaviy madaniyatini yuksaltirish, malaka oshirish tizimini rivojlantirish va infratuzilmaga investitsiyalarni kengaytirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, eng katta muammolar xizmatlar sifati pastligi, boshqaruv samaradorligining yetarli emasligi va kadrlar salohiyatining cheklanganligi bilan bog‘liq. Bu uy-joy fondidan samarali foydalanish va xizmatlar sifatini ta’minlashda qator to‘siqlar yaratadi.

Analiz asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqariladi:

1. Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar — uy-joy boshqaruvining samaradorligini sezilarli oshiradi va aholi uchun xizmatlar sifati hamda shaffoflikni ta’minlaydi.
2. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish — bozor mexanizmlari va raqobat muhitini shakllantirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.
3. Kadrlar malakasini oshirish va aholi ishtirokini kuchaytirish — boshqaruv jarayonlarida nazorat va mas’uliyatni ta’minlaydi, bu esa xizmat sifati va uy-joy fondidan samarali foydalanishni ta’minlaydi.
4. Energiya tejamkor va yashil texnologiyalar — iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta’minlaydi, uy-joy fondining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Shu tariqa, uy-joy fondi boshqaruvini zamonaviylashtirishda kompleks yondashuv, ya’ni texnologiyalar, iqtisodiy mexanizmlar va ijtimoiy ishtirokni uyg‘unlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu esa nafaqat davlat siyosatiga, balki aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga ham muhim hissa qo‘shadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // URL: https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-PQ-4699-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/-4800657
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017 yildagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5017-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-3170224
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2021 yildagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/-5464157
5. Д. А. Беридиева, З. З. Акбарходжаева. “Замонавий уй-жой фонди бошқарув компаниялари янги бизнес жараён сифатида.” Журнал “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” илмий электрон журнал. Jild 2 № 10 (2024). 326-336 б. 31.10.2024 й. Jild 2 № 10 (2024). 326-336 б. 31.10.2024 й. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp326-336, https://e-itt.uz/index.php/eitt/index
6. Д. А. Беридиева, З. З. Акбарходжаева. Замонавий уй-жой фонди бошқарувини самарали ташкил этишнинг узоқ муддатли прогнози ва стратегик таҳлил натижалари. «Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali (https://e-itt.uz/index.php/aept/index)ning 2024-yil 2-soni 250-259 бет. ноябр.2024й. https://e-itt.uz/index.php/aept/article/view/1795
7. Inoyatova , D. (2025). Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.15397077
8. Adilova, Y. (2025). Uy-joy kommunal xo‘jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.15310168
9. Achilova F.K. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqaruvida raqadmli texnologiyalarni tadbiq etishning afzalliklari. Vol. 2 No. 25 (2023): O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/8985?utm_source=chatgpt.com
10. Qurbonov U. O‘zbekistonda uy-joy siyosatining shakllanishi va huquqining asosiy tamoyillari rivojlanish bosqichlari. ResearchBib IF-11.01,ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 6 https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/110552/112112
11. Odinayev , B. (2025). Uy-joy qurilish bozori narxlariga ta’sir qiluvchi omillar va muammolar. Ilg‘or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar, 2(4), 239-245. https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss4-pp239-245

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100